

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIMI
BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ASRAYEV ZAFAR RIZAKULOVICH

**UMUMKASBIY FANLARNI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM
RESURLARINI ISHLAB CHIQISH VA FOYDALANISH METODIKASI
(oliy ta'lim muassasalarida "Amaliy mexanika" fani misolida)**

13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Asrayev Zafar Rizakulovich

Umumkasbiy fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va foydalanish metodikasi (oliy ta'lim muassasalarida "Amaliy mexanika" fani misolida) 3

Асраев Зафар Ризакулович

Методика разработки и использование электронных образовательных ресурсов в преподавании общепрофессиональных дисциплин (на примере дисциплины «Прикладная механика» в высших образовательных учреждениях).....25

Asraev Zafar Rizakulovich

The development methodology and use of electronic educational resources in the teaching professional disciplines (example the discipline "Applied Mechanics" in higher educational institutions).....49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIMI
BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ASRAYEV ZAFAR RIZAKULOVICH

**UMUMKASBIY FANLARNI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM
RESURLARINI ISHLAB CHIQISH VA FOYDALANISH METODIKASI
(oliy ta'lim muassasalarida "Amaliy mexanika" fani misolida)**

13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Ped1506 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Buxoro muhandislik - texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ipitvet.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bibutov Narzullo Salimovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Dilmurod Normurodovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich
pedagogika fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped48.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel.: (99871)246-92-17, faks: (99871)246-90-37, e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel.: (99871)246-92-17, faks: (99871)246-90-37).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil "____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

R.X.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi , p.f.d., akademik

S.Yu.Ashurova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, p.f.n., professor

H.Sh.Kadirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon ta'lim tizimida rivojlangan mamlakatlar tomonidan qabul qilingan "Ta'lim-2030 Incheon deklaratsiyasi"da ta'kidlanganidek, hozirgi davrda bilim kuch manbai, ta'lim esa uni imkoniyatlarini oshiradi. Bu ikki jihat rivojlanish formulasining ajralmas qismidir" deb e'tirof etilgan¹. Bundan tashqari oliy ta'limni rivojlantirishda ta'limni individuallashtirish, kompyuterlashtirish va standartlashtirish kabi umumiy an'analarga e'tibor oshmoqda. Bu borada yangi avlod ta'lim resurslariga, jumladan axborot resurslariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim haqidagi zamonaviy tushunchalarda "didaktik vositalar" tushunchasidan ko'ra "ta'lim resurslari" tushunchasi ommalashib bormoqda.

Dunyo ta'lim tizimida elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalangan holda fanlarning metodik ta'minotini takomillashtirish, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, mashg'ulotlarda elektron ta'lim resurslaridan va axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko'lamda va ommaviy foydalanish tadqiq qilinmoqda. Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali real vaqt tizimida o'qitish tezlik bilan rivojlanib borayotgan ta'lim olish turlaridan biri hisoblanmoqda. Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan hech bir to'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini yaratmoqda. Sanoat tarmoqlari va ko'plab sohalarni rivojlantirish va raqamlashtirish, talabalarga innovatsion bilim berish, ularning kasbiy ko'nikma va malakalarini doimiy takomillashtirib borish ta'kidlangan.

Respublikamizda ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish uchun izchil harakatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida² intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar ustivor fazifa sifatida belgilangan. Bu esa o'z navbatida elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyasini va ulardan foydalanish metodikasi takomillashtirish bilan bog'liq dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish

¹ Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the implementation of Sustainable Development Goal 4: Ensure inclusive and equitable quality education and promote lifelong learning opportunities for all – UNESCO. -p.13. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020 yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy ishlari tahlillari shuni ko'rsatadiki, respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida muhandislik sohasi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga axborot va kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, M.M.Aripov, N.I.Tayloqov, F.M.Zokirova, N.A.Muslimov, O.X.To'raqulov, J.A.Hamidov, X.Sh.Kadirov, A.X.Abdullayev, Sh.S.Ahrarov, M.Lutfullayev, S.Rahmonqulova, S.S.G'ulomov va boshqalar, elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi bo'yicha T.T.Shoymardonov, I.A.Eshmuhammedov, G'.Otamurodov, L.X.Aripjanova, D.N.Mamatov, elektron darsliklar yaratish bo'yicha, Q.T.Olimov, Sh.Hamidov, A.A.Abduqodirov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan.

Umumkasbiy fanlarni, jumladan amaliy mexanika fanini o'qitish jarayonida talabalarning innovatsion muhandislik faoliyati qobiliyatini shakllantirishning uslubiy tizimi bo'yicha L.N.Milovanova, N.I.Naumkin, G.S. Altshullera, N.M.Anisimova, A.M. Doroshkevicha, M.M.Zinovkinoy, A.I. Polovinkina, xususan amaliy mexanikani o'qitish metodikasi bo'yicha N.N. Buxgols, N.Ye. Jukovskiy, N.N. Luzin, V. Lebedev, A.P. Minakov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

O'qituvchilarning elektron ta'lim resurslarini loyihalashtirish bo'yicha kompetensiyalarini shakllantirishda O.V.Nass, I.V.Robert, Ye.S.Polat V.V.Gura, S.R.Xabliyeva, N.V.Aleksandrova J.J.Karbozova larni o'rnini alohida ta'kidlashimiz mumkin. Elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va foydalanish metodikasi bo'yicha I.P.Tomina, A.S.Chirsov, E.A.Pervezenseva I.V.Morozova, M.V.Lapenok, A.V.Kartuzov, I.V.Voronina, V.V.Dovgan, Ye.S.Peskova ishlarini alohida aytish zarur.

Xalqaro miqyosda rivojlangan chet el mamlakatlarida pedagogika sohasida elektron ta'lim resurslari bilan bog'liq ilmiy izlanishlardan Ronald Ekyalimpa, Jangmi Hong, Simaan M. AbouRizk Woratat Makasiranondh, S. Paul Maj, David Veal, J.M.Spector, J.Locard, F.Raymond, M.Rosenberg, D.Kegan, G.Kulanthaivel,

R. Atkinson, Dj. Bersin, F. Djordj, N. Krauder, M. Linard, R. Morrou kabi olimlarning ishlarini namuna sifatida keltirish mumkin.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi xalqaro jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan akademik innovatsiyalar fondining AIF 2/20- "Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida malakali muhandislarni tayyorlash sifatini va o'qituvchilar malakasini oshirish" mavzusidagi xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumkasbiy fanlarni o'qitishda elektron resurslarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

muammoning ishlab chiqilganlik darajasi tahlili asosida elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va foydalanishni, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'quv dasturlarini o'zlashtirishni, mashg'ulotlarning adaptivlik darajasini umumkasbiy bilimlarning ehtiyojlari va xususiyatlariga bosqichma-bosqich moslashtirib borish;

"Amaliy mexanika" fanidan elektron ta'lim resurslarini yaratish va foydalanish modeli, uning protsessual-metodik, texnologik hamda mezonli baholovchi komponentlarini virtual muhit sharoitiga moslashtirish;

axborot-ta'lim muhitida elektron ta'lim resurslaridan foydalanib "Amaliy mexanika" fanidan talabalarning malaka va ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish;

"Amaliy mexanika" fanining amaliy va tajriba ishlarini bajarishda sub'ektlarning interfaol muloqotini va talabalarning axborot o'quv faoliyatini ta'minlaydigan elektron ta'lim resurslari ishlab chiqish, qo'llash hamda ularning samaradorligini tajribada aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti umumkasbiy fanlarni ETR asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti texnika yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni ETRdan foydalanib o'qitish shakllari, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida mavzuga oid falsafiy, psixologik, pedagogik, didaktik, metodik va maxsus manbalarni o'rganish va tanqidiy tahlil qilish; oliy ta'lim malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlari, umumkasbiy fanlari bo'yicha ilmiy - metodik manbalar tahlili; bo'lajak muhandis-texnologlar o'quv-tarbiya faoliyatini kuzatish, test, anketa-so'rovnomalar, suhbat o'tkazish, pedagogik tajriba - sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish hamda olingan natijalarni matematik-statistik ishlov berish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va foydalanish, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'quv dasturlarini o'zlashtirish, individual va jamoaviy ehtiyojlar asosida o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning adaptivlik darajasini umumkasbiy bilimlarning ehtiyojlari va xususiyatlariga bosqichma-bosqich moslashtirib borish asosida takomillashtirilgan;

“Amaliy mexanika” fanidan elektron ta’lim resurslarini yaratish va foydalanish modeli o‘quv jarayonini individuallashtirish, axborot-ta’lim muhitini hamda talabalarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, protsessual-metodik, texnologik hamda mezonli baholovchi bloklarni virtual muhit sharoitiga mazmunli-maqсадli moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

axborot-ta’lim muhitida elektron ta’lim resurslaridan foydalanib “Amaliy mexanika” fanidan talabalarning yangi o‘quv materialini o‘rganishi, bilimlarini umumlashtirishi va tizimlashtirishi, shuningdek malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi aralash ta’limning (Blended Learning) “Online Driver”, “Flipped learning” va “Online Lab” modellariga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

“Amaliy mexanika” fanining amaliy va tajriba ishlarini bajarishda virtual borliq muhitida H5P, learningapps pedagogik vositalar, imitatsion va bulutli texnologiyalardan maqsadli foydalanish asosida sub’ektlarning interfaol muloqotini va talabalarning axborot o‘quv faoliyatini ta’minlaydigan elektron ta’lim resurslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Kimyoviy texnologiya” va “Oziq-ovqat texnologiyasi” ta’lim yo‘nalishlari uchun “Amaliy mexanika” va “Texnik mexanika” tajriba ishlari nomli o‘quv qo‘llanmalar chop etilgan;

oliy ta’lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o‘qitishda bo‘lajak muhandislarni tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan didaktik vositalar kompleksi (interaktiv topshiriqlar, o‘rgatuvchi dasturlar, virtual stendlar, multimediali elektron o‘quv qo‘llanma) yaratilgan va o‘quv jarayoniga joriy qilingan (Intellectual mulk agentligining guvohnomalari - 6 ta);

ta’lim sifatini ta’minlashda elektron resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha mashg‘ulotlarni ETR asosida o‘qitishga qaratilgan yangi zamonaviy ta’lim texnologiyalari hamda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

“Amaliy mexanika” fanidan tajriba ishlarini bajarish bo‘yicha videodarslar “youtube” ijtimoiy kanaliga joylashtirilgan;

Umumkasbiy fanlarni o‘qitishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish modeli ishlab chiqilgan;

Adobe Flash dasturi yordamida “Amaliy mexanika” fani bo‘yicha virtual laboratoriya, H5P va Learningapps tizimlari asosida multimediali interfaol topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o‘quv qo‘llanmalar va ular haqidagi taqrizlar, o‘qituvchi va talabalar bilan o‘tkazilgan savol-javob, suhbatlar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model, talabalarning ijodiy va bilish qobiliyatini

rivojlantirish, ta'lim jarayonida zamonaviy raqamli va pedagogik texnologiyalarni joriy etish va umumkasbiy fanlarni elektron ta'lim resurslaridan foydalanib o'qitish metodikasi va axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, muallif tomonidan "Amaliy mexanika" fanini o'rganish bo'yicha elektron darsliklar, interfaol o'quv dasturlari, laboratoriya ishlarini bajarish uchun virtual stendlar, elektron bilimlar bazasi, kompyuterli sinovdan o'tkazish dasturi, o'qitish vositalaridan foydalangan holda texnik muammolarni modellashtirish texnikasi, elektron masalalar to'plami ishlab chiqilgan va joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik, amaliy taklif va tavsiyalar asosida:

elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'quv dasturlarini o'zlashtirish individual va jamoaviy ehtiyojlar asosida o'qitishga yo'naltirishga oid metodik tavsiyalar "Amaliy mexanika" hamda "Texnik mexanika" o'quv qo'llanmalari mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 7 noyabrdagi 89-05-151-son ma'lumotnoma). Mazkur o'quv qo'llanmalar OTM o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

axborot-ta'lim muhitida elektron ta'lim resurslaridan foydalanib "Amaliy mexanika" fanidan talabalarining yangi o'quv materialini o'rganishi, bilimlarini umumlashtirishi va tizimlashtirishi, shuningdek malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodikasini aralash ta'limning (Blended Learning) "Online Driver", "Flipped learning" va "Online Lab" modellariga ustuvorlik berish orqali takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar "AIF 2/20-Shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida texnik yo'nalishlar bo'yicha malakali muhandis kadrlar tayyorlash va o'qituvchilar malakasini oshirish sifatini yaxshilash" (2019-2021 yy.) mavzusidagi xalqaro loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 7 noyabrdagi 89-05-151-son ma'lumotnoma). Mazkur taklif va tavsiyalar OTM uchun o'qitish mazmunini takomillashtirishga yordam bergan;

bulutli texnologiyalar, Web 2.0 servis xizmatlari va H5P tizimining multimediali axborot tizimida yaratilgan elektron ta'lim resurslaridan foydalanish bilan bog'liq metodik tavsiyalar va takliflaridan 610170-EPP-1-2019-1-ES-EPPKA2-CBFIEJP ELBA – "Markaziy Osiyoda "BigData Intelligent Analysis" bo'yicha o'quv va ilmiy markazlarni tashkil qilish va kurslarni ishlab chiqish" (2019-2022 yy.) mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 7 noyabrdagi 89-05-151-son ma'lumotnoma). Mazkur materiallar talabalarining mustaqil ta'limini samarali tashkil qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy – uslubiy ish chop etilgan, shulardan 12 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlar uchun O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan 6 ta mualliflik guvohnoma olingan va 2 ta o'quv qo'llanma chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Umumkasbiy fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va foydalanishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda umumkasbiy fanlarni o'qitishda ETRan foydalanish holati va muammolari, umumkasbiy fanlarni o'qitishda ETRning innovatsion sifatlari va ulardan foydalanish imkoniyatlari, ETRni yaratish nazariyasi va texnologiyasi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Shu bilan birga, ETR, ta'limni axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati asoslangan. ETRlarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanishning pedagogik asoslarini tahlil etishga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek ushbu bobda **“Amaliy mexanika”** fanidan ishlab chiqilgan ETRlarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha ish olib borish, jumladan talabalar bilimlarini nazorat qilish uchun turli murakkablikdagi interfaol topshiriqlar, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun virtual stendlar ishlab chiqish, hisoblash grafik ishlari va kurs loyihalarini bajarishda hisoblovchi, loyihalovchi va modellashtiruvchi dasturiy vositalardan foydalanish, ETRning multimedia imkoniyatlarini takomillashtirish va kengaytirish, animatsion materiallarni ko'proq ishlab chiqish zarurligi aniqlandi va ETRlarini yaratish texnologiyasi ko'rsatib o'tildi.

Zamonaviy ta'lim tizimida interfaollikni ta'minlaydigan ilg'or yo'nalishlardan biri va didaktik vositasi ETRLari bo'lib hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar ko'rsatadiki, ETRLari oliy kasbiy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, ular fanning nafaqat nazariy tashkil etuvchilarini o'zlashtirish uchun, balki amaliy mashg'ulot va tajriba ishlarini bajarishda, ayniqsa mustaqil ta'limda keng qo'llaniladi.

ETR uslubiy maqsadlariga ko'ra o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy vositalar, trenajyorlar, axborot - qidiruv dasturiy tizimlar, axborot - ma'lumotnoma dasturiy vositalari, veb-kvestlar, H5P interfaol elementlari, virtual stendlar,

modellashtiruvchi dasturiy vositalar, imitatsion, namoyishli va o'quv-o'yinli dasturiy vositalar bo'yicha klassifikatsiyalanadi.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, talabalarda umumkasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini samarali shakllantirishni ta'minlaydigan ETRning yangi avlodini yaratish va ulardan o'quv jarayonida foydalanishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish – o'z yechimini kutayotgan muammolardan biridir.

Shu o'rinda, yaratilayotgan ETRning interfaolliigi va multimedia boyligini hisobga olish juda muhim, chunki talabalar ixtiyorida poligrafik darsliklar to'plami bor va bu darsliklarning elektron variantdagi nusxasi uning qiziqishini uyg'otishi dargumon. Ma'ruza yoki darslik faqat ma'lumot beradi. ETR nafaqat axborotni olish, balki uni qayta ishlash, uzatish, o'zgartirish, shuningdek amaliy mashg'ulotlarda qo'llash va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatlariga ega.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida aynan ETRlaridan foydalanish o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, ta'limni individuallashtirish va axborotlashtirish, har bir talaba uchun individual ta'lim trayektoriyasini belgilab berish, o'quv jarayoniga kompetentli yondoshuv prinsiplarini joriy etish va ta'lim oluvchilarning faolliligini oshirish imkonini beradi.

Biz tomondan texnika oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyat yo'nalishlarida o'qitiladigan "Amaliy mexanika" fanidan ETR yaratish va ularning ta'lim va tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga qay darajada muvofiq kelishini aniqlash va ularni yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Shuni ta'kidlash joizki, barcha umumkasbiy fanlar ichida "Amaliy mexanika" fani alohida ajralib turadi, chunki, "Amaliy mexanika" alohida bo'lim sifatida "Nazariy mexanika", "Materiallar qarshiligi", "Mashina detallari" kabi mustaqil predmetlarni birlashtiradi. Mexanikada tabiiy va maxsus fanlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan fundamental tushunchalar va qonunlar o'rganiladi.

Fanni o'qitishda o'quv jarayonining muhim tashkil etuvchisi talabaning motivatsiyasi, o'zlashtirishga intilishi, mashg'ulotlarda faolligi, samarali mustaqil ishi hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogning talabalar bilan ishlashi jarayonida faqat an'anaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash yetarli emas. Shuning uchun o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini, jumladan kompyuterli o'qitishning asosini tashkil etadigan elektron ta'lim resurslarini joriy etish zaruriyati mavjud.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, "Amaliy mexanika" fanidan ishlab chiqilgan ETRlarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir, jumladan:


- ETRning multimedia imkoniyatlarini takomillashtirish va kengaytirish bo'yicha ishlar - video ma'lumotlarini kiritish, mexanizmlarning animatsion modellarini ishlab chiqish, interfaol topshiriqlar va vizual taqdimotlarni yaratish;

- amaliy mashg'ulot topshiriqlari va hisoblash-grafik ishlarni bajarish uchun dasturiy vositalar va o'rgatuvchi - trenajyor dasturlar ishlab chiqish, avtomatik loyihalash va modellashtirish dasturlari orqali berilgan vazifani bajarishni

tushuntiruvchi video darslarni yaratish, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun virtual stendlar ishlab chiqish;

– mustaqil ta'limni samarali tashkil etish metodik ta'minotini yaratish, individual topshiriqlarni ishlab chiqish, ularni tushuntirish va qabul qilish uchun ta'lim platformalaridan va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish.

Tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, ETRlarini yaratishning universal texnologiyasi mavjud emas. ETRni ishlab chiqish va ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish bizga ularni ishlab chiqish va joriy etishning quyidagi texnologiyasini tavsiya qilish imkonini berdi (1-rasm).




1 -rasm. Elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va joriy etish texnologiyasi

Virtual stendlar, animatsiyalar kabi ETRlarini ishlab chiqishda zamonaviy *3D MAX*, *FLASH* texnologiyalarni o'rnini alohida ta'kidlash zarur. ETRlarining ikki va uch o'lchovli ob'ektlarini loyihalash va modellashtirishda, mexanika masalalarini yechishda *AutoCAD*, *SolidWorks*, *Comsol* va *Kompas* dasturlari imkoniyatlaridan ham keng foydalanish tavsiya etiladi. Amaliy masalalarni yechish va hisoblash-grafik ishlarini bajarishda *MathCAD* va *Matlab* dasturlarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga, Internet-resurslar yordamida ETRni loyihalash mumkin. Internet imkoniyatlari hozirda imkon qadar interfaol va foydalanishga qulay bo'lib bormoqda. Internetdan foydalanish shakllari va usullari ta'limda katta imkoniyatlar yaratmoqda, ularning pedagogik salohiyati zamonaviy axborot dunyosida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy Internet resurslari ETRni loyihalash imkonini beruvchi

Web 2.0 xizmatlarini o'z ichiga oladi. Web 2.0 - bu Internet foydalanuvchilariga axborotni qabul qiluvchi va uning yaratuvchisi bo'lish imkonini beruvchi xizmatlar platformasidir. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar va Internet manbalarini tahlili ETRni loyihalash bo'yicha eng istiqbolli xizmatlarni aniqlash imkonini berdi (2-rasm).



2-rasm. ETRni loyihalash uchun Web 2.0 servis xizmatlari

Tadqiqot ishimizda ushbu xizmatlardan foydalanib, o'quv mashg'ulotlarini loyihalashga alohida e'tibor berildi.

Interfaol plakatlar, sxemalar - bu interfaol navigatsiyaga ega bo'lgan, grafika, matn, ovoz va video kabi ko'rgazmali ko'rinishlardan foydalanish orqali turli idrok organlariga yuqori darajadagi ta'sirni ta'minlaydigan yangi avlod ETRlardir. Darsda va mustaqil ishlarda interfaol plakatlar va sxemalardan foydalanish turli faoliyat shakllarini tashkil etish imkonini berdi.

Vaqt tasmalari - bu vaqt-hodisalar qatorini yaratish uchun ishlatiladigan xizmatlar. Har qanday hodisaning xronologik tartibini taqdim etish zarur bo'lsa, turli fanlarni o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan qonuniyatlar vaqt shkalasiga joylashtiriladi. Bunday tasmalarga nafaqat matnli sharhlar, balki rasmlar, fotosuratlar va videolar ham qo'shilishi mumkin. Olingan vaqt tasmalarini HTML kod yordamida veb-sayt yoki blog sahifasiga joylashtirish mumkin. Vaqt tasmadini yaratishda bir nechta manbalardan foydalanish mumkin. Ularga misol sifatida *TimeRime*, *Timeline* onlan servislarini keltirishimiz mumkin.

Interfaol xaritalar joylarning geografik tavsifini o'z ichiga olgan matn bilan ishlash vositasi, ular asosida xaritada tasvir va yorliqlar yaratiladi.

Test yaratish platformalari *Google Forms* - bu Google Drive ofis uskunalar to'plamining bir qismi. Bu elektron pochta orqali yuborilishi yoki maxsus kod

yordamida saytga o'rnatilishi mumkin bo'lgan o'z so'rovingizni yoki turli ko'rinishdagi testingizni yaratishning eng tez va eng oson usullaridan biridir.

Quizlet - taklif qilinganlardan to'g'ri javoblarni tanlagan holda testlar yaratish yoki o'z variantlarini qo'shish, rasmlar va ma'lumotlarni solishtirish platformasi.

Idrok xaritalari (mind-maps) - bu diagrammalar, piktogrammalar, chizmalar, kalit so'zlar yordamida bir varaqda katta hajmdagi ma'lumotlarni grafik shaklda taqdim etish usulidir. Ushbu usul fikrlash va muqobil yozuvlarni vizuallashtirishda qulay va samarali hisoblanadi. Idrok xaritalari "Amaliy mexanika" fani g'oyalarini qayd etish, aqliy hujum o'tkazishga yordam berish, loyiha doirasidagi ishlarni rejalashtirish, vaziyatni qisqacha tahlilini o'tkazish, shuningdek, eslatmalar yozish maqsadida qo'llanildi.

Coggle.it loyiha ustida birgalikda ish yuritish uchun onlayn vosita hisoblanadi. Ushbu ilova ko'plab xususiyatlarga ega, rasmlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash, moslashtirilgan rang sxemalari va hujjatlar tarixini ko'rish. Bunda tayyor sxemani bir nechta formatlarda saqlash va Google Drive bilan integratsiya qilish, veb-saytga joylashtirish uchun kod olish imkoni mavjud.

XMind Windows, Mac, Linux platformalarida ishlaydigan idrok xaritalarini yaratish dasturidir. Dasturning afzalliklaridan biri uning qo'llab-quvvatlanishi va Microsoft Office paketi bilan mos kelishidir.

So'zlardan bulutlar - bu biror mavzu doirasida ma'lum bir tushuncha bilan bog'langan so'zlarning vizual tasviri. *Tagul.com* - bu belgilangan veb-sahifa matnidani so'z bulutini yaratish imkonini beruvchi veb-xizmat. "Bulut" turli shakl va ranglarda taqdim etilishi mumkin.

So'zlarning "bulutlaridan" o'rganishning barcha bosqichlarida: bilimlarni frontal, individual yoki guruhlarda shakllantirish, qo'llash va nazorat qilishda foydalanish mumkin.

O'qitishda so'zlarning "buluti" dan foydalanish imkoniyatlariga quyidagilar kiradi: dars mavzusini yozib olish; ma'ruza konspekti sifatida tavsiya etilgan "bulut" ga muvofiq ma'lum bir mavzu bo'yicha jummalarni tuzish; "bulut" da tasvirlangan savolga javob topish; o'rganilayotgan dars mavzusiga oid so'zlardan "bulut" tuzish.

Masalan, bilimlarni yangilash bosqichida "Amaliy mexanika" fani "Materiallarni mustahkamlikka sinash" mavzusini o'rganishda ushbu mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar joylashgan so'zlar bulutini hosil qilib, talabalardan o'zlari o'rgangan tushunchalarni tanlab, foydalanilgan atamalarining ma'nolarini tushuntirish so'raladi.

So'zlar buluti yordamida siz tushunchaning matnini yashirishingiz va talabalardan ta'rifni tiklashni so'rashingiz mumkin. U mavzu bo'yicha o'rganilayotgan asosiy tushunchalarni vizuallashtirish, ta'riflarni tushunish, axborot madaniyati va ijodiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga axborot-kommunikativ va interfaol ta'lim tamoyillarini amalga oshirishga yordam beradi.

Interfaol o'qitish vositalari. Interfaol elektron o'quv kurslari - ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar, o'quv qo'llanmalari hamda shunday tuzilishga ega bo'lgan qo'shimcha materiallar yig'indisi bo'lib, talabalar ma'lumotni nafaqat eslab qolishadi, balki uni hayotiy va kasbiy vaziyatlar bilan ham bog'laydilar. Mavzuni

o'zlashtirishni baholashning asosiy mezoni nazariy materiallarni taqdim etish emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni ko'rsatishdir.

H5P va *Learningapps* pedagogik tizimlari Interfaol o'qitish vositalari bo'lib, turli ko'rinishdagi ko'plab interfaol kontentlarni yaratish imkonini beradi, ularni biz o'yin, multimedia shaklidagi va savol formatidagi toifalarga ajratamiz. *H5P* tizimidan foydalanib, "Amaliy mexanika" fani bo'yicha "Xotira o'yini", "Krossvord", "Interfaol video" va boshqa ko'plab interfaol ko'rinishdagi topshiriqlar yaratildi.

Learningapps.org - bu turli fanlar bo'yicha interfaol o'quv qo'llanmalarini yaratish xizmati bo'lib, u har xil murakkablikdagi ETRni va bilimlarni tekshirish uchun turli ko'rinishdagi testlarni, interfaol mashqlarni yaratish imkonini beradi. Ushbu tizimidan foydalanib, talabalarni "Amaliy mexanika" fani o'quv mashg'ulotlarni mustahkamlash uchun bir nechta interfaol mashqlar ishlab chiqildi.

Interfaol taqdimotlar. Taqdimotlarni yaratish eng keng tarqalgan vazifalardan biri bo'lib, konferensiyada nutq so'zlash, yangi loyihani himoya qilish, ma'ruzalarni tayyorlash, biron bir muhim harakatni taqdimotlarsiz bajarib bo'lmaydi. So'nggi paytlarda taqdimotlar yaratish uchun ko'plab yangi dasturlar paydo bo'ldi. *Prezi.com* - bu yangi uslubda - masshtablash texnologiyasi (zoom texnologiyasi) uslubida interfaol taqdimot yaratishingiz mumkin bo'lgan xizmatdir. Butun taqdimot - bu taqdim etilgan ob'ektlar joylashgan bitta katta virtual muhit. Unda matnlar, rasmlar, videolar, Flash animatsiyasilarini joylashtirish mumkin. Prezi nohiziqli tuzilishga ega yangi turdagi taqdimotlarni yaratishga imkon beradi.


Tadqiqotning "**Umumkasbiy fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish metodikasi**" deb nomlangan ikkinchi bobida umumkasbiy fanlarni o'qitishda ETRdan foydalanish jarayoni modeli, "Amaliy mexanika" fanidan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini ETRdan foydalanib tashkil etish va "Amaliy mexanika" fanini o'qitishda ETRdan foydalanish metodikasi bayon etilgan.

Izlanishlar natijasida umumkasbiy fanlarni o'qitishda ETRni yaratish va ulardan foydalanish modeli ishlab chiqildi va uning har bir komponenti mazmuni ochib berildi (3-rasm).

Ishlab chiqilgan model to'rtta o'zaro bog'liq bo'lgan mazmun-maqсадli, protsessual-metodik, texnologik va natijaviy bloklardan tashkil topgan.

Mazmun-maqсадli blok davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida muhandislarni tayyorlashga qo'yilgan talablar, ularning malaka talablari, xususan umumkasbiy fanlarga qo'yilgan talablarni inobatga olgan holda belgilangan. Unda ETRdan foydalanib talabalarning o'quv, tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish maqsadlarini belgilab berishi, shuningdek modelning boshqa bloklari mohiyatini ochib berishi bilan bir qatorda, ularni yaxlit tizimga birlashtirishi ko'rsatilgan.

Protsessual – metodik blok ETRlaridan foydalanib umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayoni, ETRlarini yaratish jarayonini pedagogik loyihalash, umumkasbiy fanlardan sanalgan "Amaliy mexanika"ni ETR asosida o'qitishni tashkil etish metodlari, shakllari va vositalarini tanlash va ulardan samarali foydalanishni nazarda tutadi.



3-rasm. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda ETRlarini yaratish va foydalanish modeli

Umumkasbiy fanlarni o'qitishda mavzularning xususiyatidan kelib chiqib o'qitish metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash juda muhim. Interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish o'rganilayotgan ma'lumotlarni talabalarga samarali yetkazish, ularning o'quv va kognitiv faolligini oshirish, o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish vositalaridan biri hisoblanadi.

Interfaol darslarning eng keng tarqalgan shakli kichik guruhlarda ishlashdir. Bu shakl "Amaliy mexanika" fanidan amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladi. Amaliy ish vazifalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan nazariy materialni muhokama qilgandan so'ng, talabalarga topshiriqlar to'plami yoki amaliy ishning mazmuni ko'rsatilgan ma'lumot beriladi. Ushbu texnologiya hamkorlikda o'rganish va o'zaro ta'lim usulini ham amalga oshiradi.

Shuningdek, amaliy ishlarni bajarish yoki amaliy muammolarni hal qilish jarayonida (masalan, kurs ishi va kurs loyihalari, hisoblash grafik ishlari doirasida) loyiha, tadqiqotchilik va zamonaviy Case metodlaridan foydalanildi.

Amaliy mashg'ulotda Case texnologiyadan foydalanish talabalarga bilimlarini mustahkamlash, amaliyotda qo'llash, vaziyatni kelajakdagi kasbiy faoliyatning real sharoitlariga yaqinlashtirish imkonini beradi. Ushbu texnologiyasidan foydalanib, amaliy vazifalarni ishlab chiqishda talaba o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishi, kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'liq vazifalarni tanlashi, turli xil yechimlarni o'ylab ko'rishi va ularni baholashi kerak.

Case mexanikaning tipik muammolarini yechish jarayonida unga ijodiy yondashishga, hisob-kitob natijalarini tahlil qilishga, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga, xulosalar chiqarishga va muammoni hal qilishda talabaning o'z variantini taklif qilishga o'rgatishga qaratiladi. Qisqa muddatli elektron keyslar ustida ishlash jarayonida talabalar axborotni tahlil qilishni, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini egallashni, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

Interfaol texnologiyalardan nafaqat amaliy mashg'ulotlarda, balki ma'ruzada ham foydalanish mumkin. Masalan - rejalashtirilgan xatolar metodi ma'ruzada juda samarali, chunki ular xuddi shu xatolarni topishlari kerak, aqliy hujum metodi, shuningdek yuqorida aytilgan Web 2.0 servis xizmatlaridan sanalgan interfaol plakatlar va taqdimotlar, so'zlar buluti, vaqt tasmasi, interfaol topshiriqlar, idrok xaritasi, veb-kvest, virtual ko'rgazmalar ham juda samaralidir. Ma'ruzani tashkil etishning bunday shakllari butun dars davomida talabalar e'tiborini tortadi va talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Interfaol metodlardan veb-kvest onlayn o'quv materiallarining eng murakkab turi sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Veb-kvest mavzuning muammoli tomonlarini ko'rib chiqadigan va o'rganadigan, vaziyatga o'z nuqtai nazarini bildiradigan, xulosalar chiqaradigan, keyingi maqbul yo'nalishni taklif qiladigan barcha talabalar ishtirokidagi o'quv loyihasini o'z ichiga oladi.

Veb-kvest (webquest) - Internetning axborot resurslaridan foydalangan holda rolli o'yin elementlari orqali bajariladigan muammoli vazifadir. U Internetdagi sayt bo'lib, talabalar muayyan o'quv vazifasini bajaradilar. Ushbu texnologiyadan foydalanish talabalarning o'quv va loyiha faoliyatiga motivatsiyasini oshirishga yordam beradi, kognitiv faollikni va o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshiradi,

kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida o'z ustida ishlashni va fanga individual yondashishni o'rgatadi.

O'qitishni tashkil etish metodlari bilan birga uning shakllariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Ta'lim shakllari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: aralash ta'lim (blended learning) va uning modellari (Face to Face Driver, Flipped Classroom, Flex, Online Lab, Selfbrender, Online Driver); interfaol ma'ruza; mustaqil ish; ilmiy-tadqiqot ishlari; ETRlari bilan ishlash; telekonferensiya; vebinar, kichik guruhlarda ishlash; auditoriyadan tashqari individual topshiriqlar; didaktik o'yinlar.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish" nomli ikkinchi paragrafida ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish belgilab berilgan.

Tadqiqot ishmizda elektron ta'lim resurslaridan foydalanib o'qitish metodikasini takomillashtirish maqsadida aralash ta'lim shaklining quyidagi modellaridan foydalanildi:

- "Flipped classroom" modeli. O'quv vaqti individual elektron ta'lim va o'qituvchi bilan birgalikda sinfda tashkil etilgan ta'limga taqsimlanadi. Bunda nazariy materiallar individual tarzda masofadan turib o'qiladi va auditoriyada o'qituvchi hamkorligida o'zaro muzokaralar asosida material mustahkamlanadi;

- "Online Lab" modeli. O'quv dasturi elektron ta'lim talablariga mos ravishda kompyuter texnikasi bilan ta'minlangan auditoriyalarda qoidaga asosan tashkil etiladi. Onlayn ta'lim o'qituvchi kuzatuv asosida olib boriladi;

- "Online Driver" modeli. O'quv dasturining asosiy qismi axborot ta'lim muhitidagi elektron resurslar yordamida o'zlashtiriladi.

Ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish uchun aralash ta'limning "Flipped classroom" modelini qo'llash bo'yicha fikr yuritamiz.

Flipped classroom yoki "ag'darilgan ta'lim" ta'lim oluvchilarning passiv, zerikarli harakatini yangi ko'rinishga o'tkazuvchi ta'lim konsepsiyasidir. Ushbu model yordamida darslarni tashkil etishda o'qituvchi bir nechta video-ma'ruzalarni tayyorlaydi va ularni tarmoqqa yoki biror-bir tizimga joylashtiradi, ta'lim oluvchilar esa darsdan tashqari vaqtda o'qituvchi tomonidan tayyorlangan video-ma'ruzani ko'radi va mavzuni o'zlashtiradi. Bu esa video-ma'ruzani shoshilmasdan, takroran ko'rish imkonini beradi. Dars davomida esa mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollar, fikrlar haqida o'qituvchi bilan muzokara qiladi. Olingan bilimni takomillashtirish uchun turli nazorat topshiriqlarini bajaradi.

"Amaliy mexanika" fanini ETR asosida o'qitishni tashkil etishda o'qitish shakllari va metodlari qatorida ta'lim vositalari ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim vositalarini biz ikki guruhga ajaratib olishimiz lozim. Birinchisi ETRlar, bunga elektron darsliklar, virtual ko'rgazmalar, trenajyorlar, animatsiyalar, o'quv va interfaol topshiriqlar, nazorat testlari, intellektual o'qitish tizimlari, ikkinchisi ETRlarini ishlab chiquvchi vositalar, ularga Moodle platformasi, H5P,

Learningapps pedagogik vositalari, amaliy dasturlar, dasturlash tillari, Google xizmatlari va bulutli servislarni misol keltirishimiz mumkin.

Mashg'ulotlar davomida H5P va Learningapps multimediali axborot xizmatlaridan foydalanilishi samarali natijani ko'rsatdi. Jumladan, multimedia vositalaridan H5P xizmati interfaol videolar, taqdimotlar, mashqlar, o'yinlar, viktorinalar va boshqalar ko'rinishida interfaol kontent yaratishga imkon berdi. Learningapps yordamida esa interfaol topshiriqlar yaratish mumkinligi ko'rsatildi.

Videokonferensiya va vebinarlarni tashkil etishda Moodle tarkibidagi BigBlueButton plagini qo'llanildi. Odatda ushbu plugin Moodlega alohida o'rnatiladi. U ochiq kodli dasturiy ta'minot bo'lib, siz onlayn o'quv platformalari uchun maxsus yaratilgan video konferensiya yechimidan kutadigan barcha xususiyatlarga ega.

O'quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etishda o'quv vaqtining 60 foizigacha bo'lgan qismi talabaning mustaqil ishlarini bajarishga qaratiladi. Mustaqil ishlarni faollashtirish, talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish, axborot texnologiyalari platformasida o'qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish axborotlashgan jamiyatning muhim shartlaridan biri bo'lib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, ETRdan foydalanishni nazarda tutadi.

Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishning samarali vositalaridan biri LMS Moodle (Learning Management System-ta'limni boshqarish tizimi) platformasi bo'lib hisoblanadi. Ushbu tizimda "Amaliy mexanika" kursi yaratilib, tarkibi interfaol ETRLari, ya'ni interfaol ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar, forum, chat va viki elementlari, glossariy, test nazorati va mualliflik resurslari (virtual stendlar, animatsiyalar, interfaol topshiriqlar, interfaol video, ochiq va yopiq turdagi test savollari) bilan to'ldirildi.

Kurs tuzilishi jihatidan ketma-ket modullar va uning tarkibidagi ETRLardan tashkil topgan bo'lib, ishtirokchilar platformada osongina harakatlana oladi va o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan ta'lim trayektoriyasi bo'ylab vazifalarni qat'iy bajarishadi.

Mustaqil ish topshiriqlari, bajarish tartibi, o'rganish manbasi va sahifalari, Internet manzillari topshiriqlar jadvalida aniq ifodalandi. Shu o'rinda topshiriqlarni bajarishda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan virtual stendlar, o'rgatuvchi va hisoblovchi dasturlardan foydalanish imkoni yaratildi.

Modulli strukturaga ega bo'lgan maxsus kursimiz talabalarining mustaqil ishlarini samarali tashkil etishga qaratilgan bo'lib, quyidagi komponentalarni o'z ichiga oladi:

- Interfaol kontent. Ushbu kontent interfaol video materiallar, taqdimotlar, topshiriqlar krassvord, xotira o'yini kabi elektron resurslardan tashkil topgan bo'lib, talabalar bilan masofadan turib samarali ishlashni ta'minlaydi va ularning mustaqil ishlarini faollashtiradi.

- Forum. "Amaliy mexanika" kursining ushbu elementi asinxron rejimda ishlaydigan kommunikativ aloqa elementi bo'lib, savol-javob rejimida talabalarga mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha maslahatlar tashkil etildi.

